



O'ZBEKISTON SUG'URTA KOMPANIYALARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Haqberdiyev Bekzod
Uktamovich

*PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Masofaviy
va 2-oliy ta'lif fakulteti dekani
ORCID: 0009-0003-4580-4520*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sug'urta tizimini rivojlantirish uchun butun imkoniyatlarni ishga soldi, sug'urta tizimining rivojlanishiga yordam beradigan huquqiy asoslarini yaratadi, sug'urta kompaniyalarini tashkil etish uchun moliyaviy manbalarni qidirib topishga, ushbu kompaniyalarni litsenziyalash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga ko'maklashadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida [1]"gi PQ-4412-son Qarorida sug'urta sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini hamda ushbu sohadagi eng yaxshi jahon tajribalarini izchil joriy etish hamda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish kabi turli xil vazifalar belgilangan.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi muammosini tadqiq etishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni aniqlashga imkon beradiki, moliyaviy barqarorlikning mohiyatini aniqlashda boshlang'ich nuqta bo'lib to'lov qobiliyati – "sug'urta kompaniyasining qonun yoki shartnoma bilan asoslanadigan pul majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati" hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy tashqi omillardan biri mamlakatdagi mazkur tizimni tartibga solishning huquqiy asoslari hisoblanadi. Aynan sug'urta bozori faoliyatini tartibga solishning huquqiy-me'yoriy xujjalarni mukammal darajada ishlab chiqilganligi kompaniyalarda strategik loyihalarni amalga oshirish, optimal qarorlar qabul qilish, moliyaviy barqarorlikka erishish asosida samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Har qanday iqtisodiyotining asosi uning barqaror rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Bunday holatda sug'urta institutlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda sug'urta kompaniyalarining o'z barqarorliklarini ta'minlash yanada muhimdir. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bu sug'urta portfelidir. Sug'urta portfeli mohiyatini tushunish va uning muvozanatlashgan shaklini ta'minlash bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sug‘urta portfeli sug‘urta kompaniyasining butun faoliyati va uning moliyaviy barqarorligin belgilaydigan asosini tashkil etadi. Sug‘urta portfeli deganda ma’lum hududda sug‘urta qilingan obyektlarning haqiqiy soni yoki mavjud sug‘urta shartnomalari tushuniladi. Sug‘urta portfelining moliyaviy barqarorligi deganda qabul qilingan risklar va portfel rentabelligi o‘rtasidagi doimiy balans tushuniladi. Sug‘urta portfelining hajmi, sifati, tarkibi va dinamikasi sug‘urta to‘lovlarining kelib tushishi, sug‘urta qoplamlari tebranishi, sug‘urta summalarini hajmining o‘zgarishi sug‘urta operatsiyalarining rentabelligini belgilaydi.




1-rasm. Sug‘urta kompaniyalarining soni tarmoq kesimida 2022-2023-yil holatiga ko‘ra [2]

Yuqoridagi rasmda ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlari soni 2022-yilga nisbatan 3 taga qisqargan, 2023-yilda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalar soni jami 38 tani tashkil etmoqda, hayot sug‘urta tarmog‘ida 7 ta kompaniya, umumiy sug‘urta tarmog‘ida esa 31 ta kompaniya ish faoliyatini olib borqmoda. Bu esa o‘z navbatida, sug‘urta bozorida raqobat vujudga kelayotganidan darak bermoqda.

Har qanday iqtisodiyotining asosi uning barqaror rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday holatda sug‘urta institutlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda sug‘urta komaniyalarining o‘z barqarorliklarini ta‘minlash yanada muhimdir. Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri bu sug‘urta portfeli. Sug‘urta portfeli mohiyatini tushunish va uning muvozanatlashgan shaklini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Sug‘urta portfeli sug‘urta kompaniyasining butun faoliyati va uning moliyaviy barqarorligin belgilaydigan asosini tashkil etadi. Sug‘urta portfeli deganda ma’lum hududda sug‘urta qilingan obyektlarning haqiqiy soni yoki mavjud sug‘urta shartnomalari tushuniladi. Sug‘urta portfelining moliyaviy barqarorligi deganda qabul qilingan risklar va portfel rentabelligi o‘rtasidagi doimiy balans tushuniladi. Sug‘urta

portfelining hajmi, sifati, tarkibi va dinamikasi sug‘urta to‘lovlarining kelib tushishi, sug‘urta qoplamlari tebranishi, sug‘urta summalari hajmining o‘zgarishi sug‘urta operatsiyalarining rentabelligini belgilaydi.



2-rasm. Sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari (trln. so‘mda) [2]

Yuqoridagi ma’lumotlarda sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari aks etgan bo‘lib, 2022-yilda sug‘urta mukofotlari 6,2 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 8,1 trln. so‘mni o‘z ichiga olgan, sug‘urta to‘lovlar 2022-yilda 2,6 trln. so‘mni, 2023-yilda esa 2 trln. so‘mni tashkil etgan. Bu esa o‘z navbatida, sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni ortib borishi bilan baholanmoqda.

Sug‘urta kompaniyalarining to‘lovga qobiliyatiligi deyilganda, sug‘urta qildiruvchi oldida shartnomaga yoki qonunchilik xujjatlari bilan kelishilgan shartlarga muvofiq pulli majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘liq bajara olish imkoniyati tushuniladi. Sug‘urta kompaniyalarining to‘lovga qobilligini aniqlashda uning sektor va tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashiladi. Bundan tashqari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va xalqaro amaliyotda ushbu ko‘rsatkichni alohida xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, Yevropa ittifoqi davlatlarida qabul qilingan tartibga muvofiq, sug‘urta kompaniyalarining to‘lovga qobilligi, to‘lov qobiliyatini bo‘yicha belgilangan standart miqdor (me’yor) bilan joriy holatini taqqoslash yo‘li bilan baholanadi. Umuman olganda, sug‘urta kompaniyasining to‘lovga qobillik darajasi, kompaniya tomonidan majburiyatlarini bajara olish uchun xususiy kapitalning yetarliclik miqdori qanday degan savolga javob berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sون Qarori.

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – <https://www.imv.uz/>